

## O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUV TEJAMKOR IQTISODIY TIZIM

**Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi**

O‘zMU, tadqiqotchisi

E-mail: [dehkanovashodiyona@gmail.com](mailto:dehkanovashodiyona@gmail.com)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida suv tejamkor iqtisodiy tizimni shakllantirish masalalari tahlil etilgan. Suv narxlash mexanizmlari, tomchilatib sug‘orish texnologiyasi va davlat-xususiy sheriklik modeli kompleks o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** suv tejamkorligi, qishloq xo‘jaligi, suv narxlash, tomchilatib sug‘orish, davlat-xususiy sheriklik, suv unumdorligi, irrigatsiya, iqtisodiy rag‘batlantirish.

### Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы формирования водосберегающей экономической системы в сельском хозяйстве Узбекистана. Комплексно изучены механизмы водного ценообразования, технологии капельного орошения и модели государственно-частного партнёрства. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по повышению эффективности использования водных ресурсов.

**Ключевые слова:** водосбережение, сельское хозяйство, ценообразование на воду, капельное орошение, государственно-частное партнёрство, водопродуктивность, ирригация, экономическое стимулирование.

### Abstract

This article examines the formation of a water-saving economic system in Uzbekistan’s agricultural sector. Water pricing mechanisms, drip irrigation technologies and public-private partnership models are comprehensively analyzed. Based on the research findings, practical recommendations aimed at improving the efficiency of water resource utilization have been developed.

**Keywords:** water saving, agriculture, water pricing, drip irrigation, public-private partnership, water productivity, irrigation, economic incentives.

### KIRISH

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida suv tejamkor iqtisodiy tizimni shakllantirish zarurati suv resurslari tanqisligining kuchayishi va u bilan bog‘liq iqtisodiy xavf-xatarlar tufayli tobora ortib bormoqda. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, suv resurslarining cheklanganligi global miqyosdagi strategik muammolardan biriga aylanib, bu holat mamlakat iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Suv zaxiralari o‘tgan yilga nisbatan 6,5 mlrd kub metrga kamaygan bo‘lib, 2025-yilgi yozgi sug‘orish mavsumida daryolardagi suv oqimi o‘rtacha ko‘rsatkichning 65-93 foizi darajasida shakllandi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish jarayonida 2025-yilda jami 40,2 mlrd kub

metr suv sarflangani suv resurslari bosimining kuchayib borayotganini ko'rsatib, oziq-ovqat xavfsizligi hamda iqtisodiy barqarorlik uchun muayyan xavflarni yuzaga keltirmoqda [1]. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mamlakatdagi chuchuk suv resurslarining taxminan 90 foizini iste'mol qiladi. Qo'shimcha ravishda, sug'orish va zovur-melioratsiya infratuzilmasining eskirganligi natijasida suv yo'qotishlari 30 foizgacha yetmoqda. An'anaviy sug'orish texnologiyalari samarador emasligi sababli har yili millionlab kub metr suv befoyda sarflanadi, bu esa suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini keskin pasaytiradi [2]. O'zbekistonning suv tanqisligi fermerlarning qarz yukini oshirish, qishloq hududlaridan migratsiya kuchayishi va hosildorlikning pasayishiga sabab bo'lmoqda. Davlat 2025-yilda irrigatsiya tizimini rivojlantirishga 1,35 trillion so'm ajratgan bo'lsa-da, ushbu mablag'lar mavjud muammolarni samarali hal qilish uchun yetarli emas. Shu sababli, qishloq xo'jaligida suvni tejoychi va samarali iqtisodiy tizimni joriy etish dolzarb hisoblanadi [3].

### ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy adabiyotlarda Postel va Gleick suv tanqisligini global strategik muammo sifatida birinchi darajali masala sifatida ta'riflagan va suv resurslarini boshqarishda iqtisodiy vositalarning, xususan suv narxlash va bozor mexanizmlarining muhimligini alohida urg'ulashgan [4],[5]. Postel o'zining Last Oasis asarida suv tejamkorligini faqat texnik choralar bilan emas, balki iqtisodiy rag'batlantirish, bozor mexanizmlari va narxlash orqali ham amalga oshirish zarurligi haqidagi konsepsiyani ilk bor ilgari surgan [5]. Droogers va Kite tadqiqotlarida suv resurslari samaradorligini baholashda asosiy mezon sifatida energiya va iqtisodiy xarajatlar nisbati tanlangan. Ular sug'orish tizimlarini tahlil qilishda integratsiyalashgan basseyn (integrated basin) modelidan foydalangan metodologiyani ishlab chiqqan, bu esa suv taqsimoti, energiya sarfi va iqtisodiy samaradorlikni bir vaqtning o'zida baholash imkonini beradi [6]. Molden IWMI doirasida ishlab chiqqan "suv mahsuldorligi" konsepsiyasi orqali har bir kub metr suvdan qishloq xo'jaligida olinadigan iqtisodiy foydani miqdoriy baholash imkonini beruvchi metodologiyani taklif qilgan. Bu yondashuv suv resurslaridan foydalanish samaradorligini aniq raqamlar bilan ko'rsatishga xizmat qiladi va keyinchalik O'zbekistonga oid bir qator tadqiqotlarda keng qo'llanilgan [7].

Mahalliy mualliflardan Shoxo'jaeva Z.S. tadqiqotida O'zbekiston qishloq xo'jaligida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish masalasi xorijiy tajribalar asosida tahlil qilingan. Muallif Turkiya va Isroil kabi davlatlarda qo'llanilayotgan zamonaviy sug'orish usullarini o'rganib, ularni mahalliy agroiklim sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlari va amaliy natijalarini yoritib bergan [8]. D. Qodirov va hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqotda zovur-melioratsiya tizimlarini takomillashtirish hamda suv tejoychi sug'orish texnologiyalarini joriy etish masalalari tahlil qilingan. Mualliflar tomonidan 326 ming gektar maydonda tomchilatib va yomg'irilatib sug'orish usullarini keng joriy etish orqali yiliga qariyb 2 mlrd kub metr suvni tejash imkoniyati mavjudligi asoslab berilgan [9].

## METODOLOGIYA


Ushbu maqolada quyidagi usullardan foydalanildi: xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarni oʻrganish; suv unumdorligini  $WP = Y/ET$  formulasi asosida miqdoriy baholash; uchta sugʻorish texnologiyasini qiyosiy tahlil qilish; hamda davlat dasturlari va xalqaro tajribalar asosida siyosat tavsiyalari ishlab chiqish.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oʻzbekistonda suv resurslaridan foydalanish anʼanaviy ravishda dotatsiyalashtirilgan past narxlar asosida amalga oshirilgan. Bu tizim fermerlar oʻrtasida suv isrofgarchiligini keltirib chiqargan va tejamkor texnologiyalarga sarmoya kiritish uchun iqtisodiy ragʻbatni susaytirgan. Jahon banki maʼlumotlariga koʻra, Oʻzbekistonda har bir kub metr suvdan faqat 0,6 dollar iqtisodiy samara olinmoqda - bu jahon oʻrtacha koʻrsatkichidan 25 barobar past [1]. Bunday katta farq suv narxlash tizimini isloh qilish zarurligini yaqqol koʻrsatadi. Xalqaro amaliyotda suv narxlash tizimi asosan uchta model orqali amalga oshiriladi: toʻliq xarajatni qoplash modeli (full-cost recovery), blokli tarif tizimi (block tariff) hamda suv savdosi bozori (water trading market). Oʻzbekiston sharoitida blokli tarif tizimi eng maqbul yondashuvlardan biri sifatida koʻrib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuvga koʻra, fermerlar belgilangan meʼyor doirasida suvni nisbatan past narxda isteʼmol qiladi, meʼyordan ortiq sarf qilingan suv uchun esa progressiv tariflar qoʻllaniladi. Ushbu mexanizm kichik fermer xoʻjaliklarini qoʻllab-quvvatlash bilan birga, suv resurslaridan ortiqcha foydalanishga nisbatan iqtisodiy cheklov yaratadi. Oʻzbekistonda 2019-yildan boshlab suvni tejoyvchi texnologiyalarni joriy etayotgan klaster tashkilotlari va fermer xoʻjaliklarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida naqd subsidiyalar ajratish mexanizmi yoʻlga qoʻyildi. Ushbu tizim suv resurslaridan samarali foydalanishni ragʻbatlantirishda muhim iqtisodiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Maʼlumotlarga koʻra, 2018-yilga qadar mamlakat boʻyicha suvni tejoyvchi texnologiyalar joriy etilgan maydon atigi 28 ming gektarni tashkil etgan boʻlsa, hozirgi kunga kelib bu koʻrsatkich 1,26 million gektarga, yaʼni umumiy sugʻoriladigan yerlarning qariyb 30 foiziga yetgan [11]. Biroq, Oʻzbekistonda suv tejamkor texnologiyalarni joriy etishga ajratilayotgan subsidiyalar tizimida hali ham jiddiy kamchiliklar mavjud: sugʻorish xizmati toʻlovi va elektr energiya xarajatlari boshqa dehqonchilik xarajatlariga nisbatan kichik boʻlib, ular faqat qisman haqiqiy suv isteʼmoli asosida hisoblanadi [12]. Bu holat fermerlarning suv tejashdan iqtisodiy manfaat koʻrmasligiga olib kelmoqda. Iqtisodiy ragʻbatlantirish tizimini takomillashtirish uchun soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlash va maqsadli subsidiyalarni birlashtirgan kompleks mexanizm zarur. Tomchilatib sugʻorish tizimini joriy etish orqali paxta hosildorligi uchun energiya xarajatlari har gektarda 499 ming soʻm, bugʻdoy uchun esa 317 ming soʻmga kamayadi. Oʻrtacha hosilning barcha ekinlar boʻyicha 40 foizga oshishi prognoz qilinadi [13]. Ushbu raqamlar iqtisodiy ragʻbatlantirish tizimining samarali yoʻlga qoʻyilishi qanchalik katta iqtisodiy samara berishini koʻrsatadi.

Tomchilatib sugʻorish Oʻzbekistonda suv tejamkorligi boʻyicha eng istiqbolli texnologik yechim sifatida tan olinmoqda. Masalan, Qarshi choʻlida 5 gektarlik maydonda tomchilatib sugʻorish joriy etilishi anʼanaviy egatlab sugʻorishga nisbatan

paxta hosilini 13 foizga oshirgan va har gektarda 3 590 kub metr suvni, ya'ni 50 foizdan ortiq miqdorda tejash imkonini bergan [14]. Biroq, texnologiyani keng miqyosda joriy etishda iqtisodiy to'siqlar mavjud. Tomchilatib sug'orish tizimlari hozirgi kunda asosan 15 gektardan katta maydonlar uchun mos bo'lib, bu xarajatlarni kamida 375 million so'mga oshiradi [12]. Ushbu muammoni hal qilishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning "Suv resurslarini rivojlantirish strategiyasi 2020-2030" farmoniga ko'ra, 2030-yilga kelib sug'oriladigan yerlarning 50 foizi, ya'ni 2 million gektarda suvni tejoychi texnologiyalar joriy etilishi rejalashtirilgan, shundan 600 000 gektarda tomchilatib sug'orish tizimi ishlatiladi [15]. Ekspertlar hisoblashicha, sug'orish infratuzilmasini modernizatsiya qilish suv tanqisligi mavjud hududlarda qishloq xo'jaligi mahsuldorligini ikki baravar oshirishi va mamlakat YAIMiga 7-10 foiz qo'shimcha hissa qo'shishi mumkin [14]. DXSh modelining muvaffaqiyatli ishlashi uchun uch shart muhim: birinchidan, xususiy investorlar uchun aniq huquqiy kafolatlar va foyda ulushining belgilanishi; ikkinchidan, kichik fermerlarni moliyalashtirish uchun maxsus kredit liniyalari va kafolat fondlari; uchinchidan, texnologiyalarni mahalliy ishlab chiqarish orqali xarajatlarni kamaytirish. Mutaxassislar shuni ta'kidlaydiki, texnologiyalarni mahalliy ishlab chiqarish narxni sezilarli darajada pasaytirib, dehqonlar uchun joriy etishni osonlashtiradi [14].



**1-rasm. Sug'orish texnologiyalarining samaradorligini taqqoslash grafiği<sup>1</sup>.**

Yuqoridagi grafikda uch turdagi asosiy sug'orish texnologiyalarining suv

<sup>1</sup> Manba: muallif ishlanmasi

samaradorligi qiyoslangan. Ma'lumotlarga ko'ra, an'anaviy egatlab sug'orish usulida suvning atigi 60-70 foizi ekinlarga yetib boradi, qolgan 30-40 foizi esa bug'lanish, sizot va infiltratsiya orqali yo'qoladi. Sprinkler tizimida bu ko'rsatkich 80-85 foizga ko'tariladi. Eng samarali texnologiya sifatida tomchilatib sug'orish ajralib turib, suvni to'liq ildiz zonasiga yetkazish orqali 95-100 foizlik samaradorlikni ta'minlaydi. O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning 70 foizidan ortig'ida hali ham an'anaviy egatlab sug'orish qo'llanilishi suv yo'qotishlarining qanchalik katta ekanligini ochiq ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligida suv resurslarini samarali ishlatish darajasini o'lchash uchun "suv unumdorligi" (Water Productivity) ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkich ekinlardan olinadigan hosil hajmini ishlatilgan suv hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi. Formulasi quyidagicha:

$$WP=Y/(ET) [7]$$

Bu yerda,

Y - qishloq xo'jaligi mahsulotining hosildorligi (kg/ga yoki tonna/ga),

ET esa o'simlik tomonidan sarflangan suv miqdori, ya'ni evapotranspiratsiya ( $m^3/ga$ ). WP qiymati qanchalik katta bo'lsa, suvni shunchalik samarali ishlatish anglatadi, ya'ni har bir kub metr suv evaziga ko'proq mahsulot olinadi.

Molden taklif etgan metodologiya asosida O'zbekiston sharoitida hozirgi suv unumdorligi ko'rsatkichi taxminan 0,6 AQSh dollari/  $m^3$ ni tashkil etadi - bu jahon o'rtacha darajasiga nisbatan ancha pastdir, jahon bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich esa taxminan 15 AQSh dollari/  $m^3$  atrofida. Shu sababli, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish va samarali texnologiyalarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Analizlar shuni ko'rsatadiki, tomchilatib sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish hamda suv narxlash islohotlarini amalga oshirish orqali suv unumdorligini 3-5 AQSh dollariga qadar oshirish imkoniyati mavjud.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligi hanuz past darajada qolmoqda. Suv narxlash tizimining isloh qilinmaganligi, eskirgan infratuzilma va tejamkor texnologiyalarga iqtisodiy rag'bat yetishmasligi bu muammoning asosiy omillaridir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Suv narxlash tizimini isloh qilish - blokli tarif tizimini joriy etish orqali fermerlarni suvni tejashga iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish lozim.

2. Tomchilatib sug'orish texnologiyasini kengaytirish - bu maqsadda subsidiya va imtiyozli kredit dasturlarini kengaytirish zarur.

3. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modelini rivojlantirish - xususiy investitsiyalarni jalb qilish va texnologiyalarni mahalliy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish samarali natija beradi.

Ushbu chora-tadbirlar kompleks tarzda amalga oshirilsa, suv unumdorligini hozirgi 0,6 AQSH dollar/ $m^3$  darajasidan 3-5 AQSH dollar/ $m^3$  gacha oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi. (2025, December 16). O‘zbekistonda suv zaxiralari bir yilda 6,5 mlrd metr kubga kamaydi. <https://gov.uz/oz/suvchi/news/view/110158>
2. UNECE. (2025). Baseline analysis of the situation with water, sanitation, hygiene and health in Uzbekistan (Draft). United Nations Economic Commission for Europe. [https://unece.org/sites/default/files/2025-11/UZB\\_Baseline%20analysis\\_Uzbekistan\\_PWH\\_2025\\_FINAL.pdf](https://unece.org/sites/default/files/2025-11/UZB_Baseline%20analysis_Uzbekistan_PWH_2025_FINAL.pdf)
3. World Bank. (2025, May 21). Uzbekistan to modernize its irrigation infrastructure with World Bank support. <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2025/05/21/uzbekistan-to-modernize-its-irrigation-infrastructure-with-world-bank-support>
4. Postel, S. (1992). Last Oasis: Facing Water Scarcity. W. W. Norton & Company.
5. Gleick, P. H. (Ed.). (1993). Water in Crisis: A Guide to the World’s Fresh Water Resources. Oxford University Press.
6. Droogers, P., & Kite, G. (1999). Water productivity from integrated basin modeling. *Irrigation and Drainage Systems*, 13, 275-290. <https://doi.org/10.1023/A:1006345724659>
7. Molden, D. (Ed.). (2007). Water for Food, Water for Life: A Comprehensive Assessment of Water Management in Agriculture. Earthscan/IWMI. <https://www.routledge.com/9781844073962>
8. Shoxo‘jaeva, Z. S. (2022). O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etishning ilmiy asoslari. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-respublikasi-qishloq-xo-jaligini-zamonaviy-suv-tejaydigan-texnologiyalarni-joriy-etishning-ilmiy-asoslari/viewer>
9. Qodirov, D., va boshqalar. (2025). Zovur-melioratsiya tizimlari va suv tejoychi sug‘orish texnologiyalarini rivojlantirish masalalari. <https://staff.tiame.uz/storage/users/604/books/VcXpBegC6GADXU6JXxdnlwg3uQmIEGpzLBteZ6VT.pdf>
10. Liutin, A., & Castañeda Dower, P. (2024, February 9). Irrigation innovation: Navigating challenges in Uzbekistan’s water-energy-food-environment nexus. CGIAR System. <https://www.cgiar.org/news-events/news/irrigation-innovation-navigating-challenges-in-uzbekistan-water-energy-food-environment-nexus>
11. UNDP Uzbekistan. Using water wisely through drip irrigation. United Nations Development Programme. <https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/using-water-wisely-through-drip-irrigation>
12. CABAR.asia. (2024, February 9). Uzbekistan seeks to introduce new technologies for irrigation of agricultural lands. <https://cabar.asia/en/uzbekistan-seeks-to-introduce-new-technologies-for-irrigation-of-agricultural-lands>
13. Kust, G., et al. (2022). Rebound effects in irrigated agriculture in Uzbekistan: A stakeholder-based assessment. *Sustainability*, 14(14), 8375. <https://www.mdpi.com/2071-1050/14/14/8375>

14. Turaeva, S., & Sultanova, G. (2022). Climate change impact on agriculture and water resources: Uzbekistan. In *SDGs in the Asia and Pacific Region*. Springer. [https://doi.org/10.1007/978-3-030-91262-8\\_38-1](https://doi.org/10.1007/978-3-030-91262-8_38-1)



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, mart, 3-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**